



NOANIQLIK SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENT QARORLARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Sultanova Nazokat Olim qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada strategik menejment qarorlarini shakllantirishda uchraydigan asosiy muammolar, ularning sabablari hamda ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy yondashuvlar ikkilamchi axborotlar asosida bartaraf etish yo'llari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar. Strategik boshqaruv, qaror qabul qilish, noaniqlik, tavakkalchilik

Zamonaviy biznes muhiti tobora murakkablashib borayotgan sharoitda strategik qarorlar qabul qilish jarayoni menejmentning eng muhim funksiyalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Globallashuv, texnologik innovatsiyalar, raqobatning kuchayishi va bozorlarning notekis rivojlanishi menejerlardan tezkor va asosli qarorlar qabul qilishni talab etmoqda. Strategik qarorlar tashkilotning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishini belgilab beradi va ularning samaradorligi tashqi muhit omillari, ichki resurslar hamda rahbariyatning malakasiga chambarchas bog'liqdir. Biroq noaniqlik va tavakkalchilik darajasining yuqoriligi qarorlarni samarali qabul qilishda qator muammolarni yuzaga keltiradi va shu bilan birga, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish jarayoni yanada murakkablashadi. Bu holat rahbarlardan nafaqat analitik, balki intuitiv yondashuvni ham talab qiladi.

Ilmiy maqola maqsadi. Maqolaning asosiy maqsadi – strategik menejment jarayonida qaror qabul qilishda uchraydigan muammolarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishning ilmiy-uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqishdir.

Ilmiy maqola vazifasi. Ushu maqolada yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagilarni o'z oldiga vazifa qilib qo'yilgan.



1. Strategik qarorlarning mazmun-mohiyati va ularning oddiy boshqaruv qarorlaridan farqlarini yoritish.
2. Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish jarayonida uchraydigan asosiy muammolarni tahlil qilish.
3. Ushbu muammolarning tashkilot faoliyati va barqarorligiga ta'sirini aniqlash va baholash.
4. Ikkilamchi manbalar asosida xalqaro va milliy tajribalarni tahlil qilish.
5. Qaror qabul qilish jarayonida samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi usullar va zamonaviy texnologiyalarni o'rganish.
6. Strategik menejmentda muammolarni bartaraf etishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar sharhi. Ko'plab tadqiqotchilar strategik qaror qabul qilish muammolarini turli nuqtai nazardan o'rganishgan. Mintzberg (1994) strategiyani "ilm va san'at" uyg'unligi sifatida talqin qilib, noaniqlik sharoitida menejrlarning kreativ fikrlashini zarur deb biladi. Simon (1977) esa qaror qabul qilish jarayonini "cheklangan ratsionallik" konsepsiyasi orqali tushuntirib, menejrlar barcha ma'lumotlarga ega bo'lmashliklari tufayli ko'pincha optimal emas, balki qoniqarli qaror qabul qilishlarini qayd etgan.

So'nggi yillarda BCG (2022) va McKinsey (2023) kabi konsalting kompaniyalari hisobotlarida korxonalarining strategik qarorlarida raqamli transformatsiya va sun'iy intellektning roli oshayotgani ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, Jahon banki (2021) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda strategik menejment qarorlariga institutsional noaniqlik va iqtisodiy barqarorlik yetishmasligi sezilarli darajada ta'sir etmoqda.

Chandler (1962) ta'kidlaganidek, strategiya – bu tashkilotning uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun resurslarni taqsimlash jarayonidir. Mintzberg (1994) esa strategik qarorlarning ko'p qirraliligini va murakkabligini qayd etadi. Oddiy boshqaruv qarorlari qisqa muddatli natijaga qaratilgan bo'lsa, strategik qarorlar tashkilotning istiqbolini belgilaydi.



Simon (1979)ning “cheklangan ratsionallik” nazariyasiga ko‘ra, rahbarlar barcha ma’lumotlarga ega bo‘lmagan holda qaror qabul qilishga majbur bo‘ladilar. Noaniqlikning asosiy manbalari tez o‘zgaruvchan bozor sharoiti, texnologik innovatsiyalar, siyosiy va iqtisodiy beqarorlik, inson omili va kadrlar muammolaridan iborat.

Eisenhardt va Zbaracki (1992) raqobat sharoitida strategik qarorlarning tezkor va sifatli qabul qilinishi tashkilotning muvaffaqiyatini belgilashini ta’kidlaydi. Shuningdek, Khatri va Ng (2000) intuitiv qarorlarning ham muhimligini ko‘rsatib, faqat analitik yondashuvning yetarli emasligini ta’kidlagan.

Davenport va Ronanki (2018) zamonaviy boshqaruvda raqamli transformatsiya, ma’lumotlarni tahlil qilish va sun’iy intellekt texnologiyalari qaror qabul qilish samaradorligini oshirayotganini ta’kidlaydilar. Shuningdek, simulyatsiya va modellashtirish metodlari ham risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ilmiy maqola metodologiyasi. Ushbu maqolada noaniqlik sharoitida strategik menejment qarorlarini shakllantirishda yuzaga keladigan muammolarni o‘rganish va tahlil qilish uchun ikkilanchi axborotlardan foydalanildi. Ikkilanchi axborotlar ilmiy manbalar ilmiy adabiyotlar, statistik ma’lumotlar va mavjud tadqiqotlar yordamida shakllantirildi.

Ilmiy maqola tahlili va natijalari. Ikkilanchi axborotlar asosida aniqlanishicha, strategik menejmentda qaror qabul qilishda quyidagi muammolar mavjud:

1. Ma’lumotlarning yetishmasligi – bozor, raqobatchilar va iste’molchilar haqidagi to‘liq statistik ma’lumotlarning mavjud emasligi (Davlat statistika qo‘mitasi, 2024).
2. Noaniqlik va tavakkalchilik – siyosiy, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlar natijasida kutilmagan vaziyatlarning yuzaga kelishi.
3. Sub’ektiv qarashlar – menejerlarning shaxsiy tajribasi va intuitsiyasiga had-dan tashqari tayanishi.
4. Raqamli transformatsiya bilan bog‘liq qiyinchiliklar – yangi texnologiyalarni joriy etishda malaka va resurs yetishmasligi.



5. Tashkiliy ziddiyatlar – qaror qabul qilish jarayonida turli darajadagi rahbarlar o‘rtasida kelishmovchiliklarning yuzaga kelishi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Noaniqlik sharoitida strategik qaror qabul qilish jarayoni ko‘p qirrali va murakkabdir. Tashqi muhitning tezkor o‘zgarishi, ichki resurslarning cheklanganligi hamda inson omili ushbu jarayonni yanada qiyinlashtiradi. Shu sababli tashkilotlar qaror qabul qilishda analitik va intuitiv yondashuvlarni uyg‘unlashtirishi, zamonaviy texnologiya-lardan foydalanishi va risklarni oldindan baholash tizimini joriy qilishi lozim. Shuningdek, noaniqlik sharoitida strategik menejment qarorlarini shakllanti-rishda asosiy muammo – ma’lumotlarning to‘liq emasligi va menejerlarning sub’ektiv yondashuvlari bilan bog‘liq.

Takliflar

1. Qaror qabul qilish jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish (Big Data tahlil vositasi).
2. Menejerlarning strategik fikrlash va risk-menejment bo‘yicha malakasini oshirish.
3. Tashkiliy kommunikatsiyani kuchaytirish orqali ichki nizolarni kamaytirish.
4. Milliy darajada biznes muhitining institutsional barqarorligini ta’min-lash.
5. Muammolarni bartaraf etish yo‘llarini takomillashtirish, qarorlarni qabul qilishda analitik va intuitiv yondashuvni uyg‘unlashtirish, tashqi muhitni monitoring qilishni kuchaytirish, risklarni baholashning zamonaviy usullarini qo‘llash, xodimlarni strategik fikrlashga o‘rgatish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Chandler, A. D. (1962). Strategy and structure: Chapters in the history of the industrial enterprise. MIT Press.
2. Mintzberg, H. (1994). The rise and fall of strategic planning. Free Press.
3. Simon, H. A. (1977). Administrative behavior. Free Press.



4. World Bank. (2021). World development report 2021: Data for better lives. Washington, DC: World Bank.
5. Boston Consulting Group. (2022). Shaping the future: Global strategy report. BCG Publications.
6. McKinsey & Company. (2023). The state of strategy in the digital age. McKinsey Insights.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). Iqtisodiy ko'rsatkichlar to'plami. Toshkent.